

MIRQOSIMOVA Marg'uba Mirqobilovna,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
professori, pedagogika fanlari doktori

PEDAGOGLARNING “TARBIYA” FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА “ВОСПИТАНИЕ”

IMPROVEMENT OF TEACHER'S METHODOLOGICAL TRAINING IN TEACHING THE SUBJECT “EDUCATION”

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchilarining “Tarbiya” fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi o‘rganilgan va bu jarayon samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tarbiya fanini samarali va zamonaviy ta’lim metodlari asosida o‘qitish dolzarb masalalardan biridir. Maqola muallifi ko‘p yillik metodik tajribalari asosida “Tarbiya” fanini o‘qitishga yangicha yondashuv, ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik talablarini yoritishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy yondashuvlar, “Tarbiya” fanini o‘qitish, metodik tayyorgarlik, motivatsion bosqich, kognitiv bosqich, kreativ bosqich, kompetentlik, metodik takomillashuv.

Аннотация. В статье изучен вопрос совершенствования методической подготовки учителей общего среднего образования в преподавании предмета “Воспитание” и даны рекомендации по повышению эффективности этого процесса. В статье изучен вопрос повышения методической готовности учителей к преподаванию дисциплины «Воспитание», и даны рекомендации по повышению эффективности этого процесса. Эффективное преподавание дисциплины «Воспитание» на основе современных методов обучения является одной из актуальных проблем. Автор статьи, опираясь на многолетний методический опыт, попытался осветить новые подходы к преподаванию дисциплины «Воспитание» и методические требования к использованию образовательных технологий.

Ключевые слова: современные подходы, преподавание предмета “Воспитание”, методическая подготовка, мотивационный этап, когнитивный этап, творческий этап, компетентность, методическое совершенствование.

Summary: The article examines the issue of improving the methodical preparation of general secondary education teachers for teaching the subject of “Education” and gives recommendations to increase the effectiveness of this process. Effective teaching of “Education” based on modern teaching methods is one of the pressing issues. The author of the article, drawing on many years of methodological experience, has attempted to illuminate new approaches to teaching “Education” and the methodological requirements for the use of educational technologies.

Keywords: modern approaches, teaching of “Education” subjects, methodological preparation, motivational stage, cognitive stage, creative stage, competence, methodical improvement.

KIRISH

Bugungi mafkuraviy-g‘oyaviy to‘qnashuvlar dunyo ahlini tahlikaga solayotgan, turfa axborot xurujlari ongi va tafakkuriga tahdid qilayotgan bir paytda yosh avlodni ma‘nan yetuk, jismonan sog‘lom etib tarbiyalash omili bo‘lgan ta’lim zamonaviy yondashuvlarni taqozo etmoqda. Binobarin, Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning ta’kidlashicha, dunyodagi har qanday xalq yoki davlatning kuch-qudrati, avvalo, uning intellektual salohiyati va ma’naviyati bilan belgilanadi. Yurtboshimizning bu fikrlari zamirida, albatta, ta’limning zamon talablari asosida rivojlanishi bilan bog‘liq fundamental o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlarni qo‘llash masalasi turadi. Umumiy o‘rta ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish ham aynan bu jarayonda yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Xususan, bu bosqichda dars berayotgan o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

O‘qituvchilarning “Tarbiya” fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va motivatsion, kognitiv, va kreativ bosqichlarda ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish tavsiya qilinadi.

(1-jadval)

Bosqich	Mazmuni	Amalga oshiriladigan ishlar
Motivasion	O'quvchilarning manbalardan samarali foydalanishga qiziqishini va ehtiyojini rivojlantirish	Tarbiyaga oid ma'lumotlarni o'zlashtirishning o'quv va hayotiy faoliyatdagi ahamiyatini tushuntirish asosida o'quvchilarning qiziqish hamda ehtiyojini rivojlantirish.
Kognitiv	O'zlashtirilayotgan manbalarni mustaqil tahlil qila olish malakasini shakllantirish	O'quvchilarning "Tarbiya" fanini o'qitishda zarur tayanch tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash asosida tushuntirish.
Kreativ	"Tarbiya" darsligida keltirilgan o'quv axborotlari bilan ishlash davomida ijodiy yondashuvini qaror toptirish	Fan sohalari bo'yicha standart va nostandart vaziyatlarda qo'llay olishi uchun vaziyatlarni baholay olish, kerakli farazlarni ilgari surishda ijodiy yondashuvni yuzaga keltiruvchi omillarni takomillashtirish.

Motivatsion bosqichda o'qituvchilarni "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish ko'zda tutiladi. Motivatsion bosqichning maqsadi: o'qituvchilarning "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali o'quvchilarning o'quv materiallari sifatida yangi bilimlarni o'zlashtirishi, o'quv faoliyati va hayotiy faoliyatlarda ahamiyatini anglashi asosida amaliyotga aloqadorligini ko'rsatib berish.

- O'qituvchilarni "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda o'quv materiallari sifatida taqdim etiladigan axborotlar mazmunini ta'lim sifatini baholash va metodik ta'minotini ishlab chiqish.

Motivatsion bosqichda o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyatini anglash asosida ishtirok etishi va ta'limning yangi sharoitlariga moslashuv jarayoni yuz beradi [1:52].

Kognitiv bosqich. Ushbu bosqichda o'qituvchi va o'quvchilarning doimiy zamon talablari darajasi bilan hamohangligini ta'minlash uchun muhim

ahamiyat kasb etadigan usullardan foydalanish nazarda tutiladi. O'quvchilar tomonidan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va o'z faoliyatini zamonaviylik bilan bog'liqlikda o'z-o'zini boshqarishning to'liq anglab olinishini taqozo etadi.

O'quvchilarning "Tarbiya" darslarida yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun nazariy bilimlar va zarur tayanch tushunchalarning mazmun – mohiyatini anglashlariga erishish, o'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini faollashtirish va ularning axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqib o'quv materiallarini tanlashi asosida belgilangan vazifalar amalga oshiriladi.

Kreativ bosqichda o'qituvchilarni "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda tarbiya faniga tegishli ma'lumotlar va terminlarni qo'llay olishi, muammolarni hal qilish, vaziyatlarni baholay olishi va kerakli farazlarni ilgari surish ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchidan ijodkorlikni talab qiladi. Bu jarayonda ijodiy yondashuvini yuzaga keltiruvchi omillar quyidagilardir:

1. Shaxsning individul xususiyatlari: noodatiy va noaniq vaziyatlarni baholay olishi, moslasha olishi va o'ziga maqul variantlarni tanlay olishi; bildirayotgan fikrlarining turli variantlilikligi;

2. Ijodkorlik muhiti: ijodiy yondashuvga sharoit yaratuvchi doimiy muhit va bu muhitni yaratishga xizmat qiluvchi turli omillar; "portlash" effektini hosil qiladigan vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi ta'sirlar (stimul). Bunday muhit o'quvchilar jamoasida ijodiy yondashishga sharoit yaratadi [3:2].

O'qituvchilarning "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarda Tarbiya fani dasturi o'quv materiallari zaruriy umumlashtirishlarni shakllantirish uchun eng qulay sharoitlar yaratish maqsadida faqat mazmunga emas balki, o'quv materialining joylashish sistemasi ham javob berishi lozim. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda Tarbiya fani dasturida o'quv materiallari rasmiy va matnli joylashgan bo'lib, mantiqiy ketma-ketlikga asoslanganligidir.

Illyustrativ va tushuntirish darslari – o'quv jarayoni asosan ko'rgazmali metodlar asosida olib boriladi. Asosan ta'lim oluvchilarning eshitish va esda saqlab qolish qobiliyatlariga tayaniladi.

5-6-sinflarda esa Muammoli darslar – muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, uning yechimini yakka yoki guruhlar ishtirokida yechimi topishga yo'naltirilgan faol ta'lim muhitini

yaratishga e'tibor berish. Bunday darslarda bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga, o'quvchilarning fikr yuritishi, qiziqishlariga e'tibor qaratiladi.

Dasturlashtirilgan darslar – maxsus elektron dasturlar asosida tashkil etiladi. Natijada o'quv jarayoni elektron ravishda nazorati va boshqaruvchi qulaylashtiriladi.

Nostandart darslar – o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga, o'quv mehnatiga qiziqish, hoxish, istaklari orqali o'quv jarayoni tashkil etiladi. O'z navbatida turli darslarni tashkil etish uchun tanlab olingan shakllarda faoliyatni olib borish uchun ta'lim vositalaridan foydanish ta'lab etiladi. Yuqori sinflarda matnli, tasvirli, audiovizual, yordamchi, modeli ta'lim vositalaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Ta'limning matnli vositalariga ilmiy va o'quvmetodik adabiyotlar, lug'atlar, ko'rsatmali xaritalar, didaktik materiallar kiradi. Bu vositalardan samarali foydalanish dars samaradorligini ta'minlaydi.

Ta'lim shakllari, metodlari va vositalari

Ta'lim shakllari	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
Tarbiya fanini o'rgatishda illyustrativ va tushuntirish darslari	ta'limning ko'rgazmali metodlari	tasvirli vositalar
Dars jarayoni bosqichlari asosida muammoli darslar	ta'limning muammoli izlanish, klaster, evristik, kichik guruhlarida ishlar metodlari	matnli vositalar
Tarbiya darslarida mashq turlari bo'yicha dasturlangan darslar	ta'limning amaliy metodlari	audio-vizual vositalar
Tarbiya fanini o'qitish bo'yicha nostandart darslar	ta'limning induktiv va deduktiv metodlari	yordamchi va modeli vositalar

XULOSA

Demak, pedagoglarning “Tarbiya” fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimli amalga oshirilishi lozim. Sinflar kesimida pedagoglar o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilim va tafakkur darajalarini hisobga olgan holda metod, usul, vosita va texnologiyalardan foydalanishlari talab qilinadi. Darslik bilan ishlashda ham o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'z

fikrini, xukm-xulosalarini asoslashga, tahlil malakasini takomillashtirishga e'tibor qaratishlari zarur. Yuqori sinflarda “Tarbiya” fanidan darslik bilan ishlashda matnlarni o'qib o'rganish va o'z fikr-mulohazalarini bayon qilish, savol-topshiriqlar bilan ishlash ham alohida ahamiyatga ega. Yuqori sinflarda “Tarbiya” fanidan darslik bilan ishlashda matnlarni o'qib o'rganish va o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini bayon qilishlari uchun sharoit yaratish, savol-topshiriqlar bilan ishlash ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, 9-sinf “Tarbiya” darsligidagi “Vatandan tashqari baxt yo'q”, “O'z-o'zini anglash – baxt va muvaffaqiyatning asosi” kabi ruknlar ostidagi mavzular doirasida fikrlashish, muammoli savollar asosida munozara-muhokama, tahlilga yo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish mumkin. Har bir o'quvchiga “Shaxsiy rivojlanish uchun uch qadam” dasturini ishlab chiqishni topshirish ham bu borada alohida ahamiyatga ega.



“Tarbiya” fanini o'qitishga doir o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish kasbiy kompetentlikning shakllanganligini tizimli nazorat qilishni ham talab etadi. Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan variativ dasturlar ishlab chiqish, elektron dasturlar va veb saytlar yaratish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С.58-64.
- Xaydarova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: diss. avtoref. – T., 2023. – 21 b.
- Миркосимова М.М. Талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 478-481.
- Миркосимова М.М. Масофавий таълим шароитида ўқув фанларини интеграциялаш таъмиллари // Образование и инновационные исследования. Международный научно-методический журнал. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 89-95.